



## OLIIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARI

*Jo'rabek Qodirov Ayitbayevich*

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti assistenti*

*Tajibayeva Setora*

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashdagi muhim masalalar, ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijalari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim sifati, Oliy Majlis, mutaxassislar va ekspertlar, maktabda zamonaviy texnologiyalar, pedagog.

**Kirish:** Har bir davlat rivojlanishi, yanada takomillashi uchun har tomonlama ko'zlangan aniq bir maqsad va rejalariga eta bo'lishi kerak. Davlat rivojlanishi uchun avvalo yoshlarga katta e'tibor qaratilishi kerak nazarimda.

Asosiy qism: Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanishdir. Ayni paytda, yurtimizda ma'nan yetuk hamda barkamol bo'lgan shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu xususda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analari doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Biz bugun ko'p millatli xalqimizga, barchamizning umidimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarimizga ishonib, marrani katta olmoqdamiz. Aziz farzandlarimiz, nabiralarimiz baxtini, kamolini o'ylab, el-yurtimizning xalqimizning yorug kelajagini ko'zlab, oldimizga ulkan vazifalar qo'ymoqdamiz. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug, hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi", degan jumllarini keltirib o'tishimiz o'rinli deb o'ylayman. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an'analarning ahamiyati katta bo'lib, ular tarbiya jarayonida eng ta'sirchan qurol vazifasini bajaradi desak noo'rin bo'lmaydi.

Bilamizki, jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmasdan yoxud mustahkamlamasdan turib o'z istiqboliga erisha olmaydi, shuningdek har bir davlat o'sib kelayotgan kelajak avlodni o'z milliy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlari negizida tarbiyalashi uchun o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ya'ni mustaqillikka erishgan bo'lishi kerak.

Xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadidagi ishlar ko'zda tutilgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar to'liq yechimini topmagan.

Bundan tashqari, iqtisodiyot sohasining istiqbolda kadrlar tayyorlashga buyurtmalarini shakllantirish, bitiruvchilarga qo'yiladigan malakaviy talablarni ishlab chiqish, tarmoqqa zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki talabga javob bermaydi. Oliy ta'lim dasturlarining o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga hamohangligini ta'minlash uchun ish beruvchilar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmayapti.

Oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasida uzilishlar mavjud, integratsiya ta'minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohasining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori respublika oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, ilmiy-pedagogik salohiyatni oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish uchun yo'naltirilgan yana bir muhim amaliy sa'y-harakatlardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shakllantirish, *Мakтабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal).
2. Xasanova, G. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'l mehnati orqali aqliy tarbiya berishning mazmuni. *Мakтабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal).
3. Oila muhitida farzand va uning tarbiyasi Rahmonqulova *Архив Научных Публикаций JSPI*, 2020 X
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlari X *Рahmonqulova Архив Научных Публикаций JSPI*, 2020
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlari X *Рahmonqulova Архив Научных Публикаций JSPI*, 2020
6. Xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash M Norquziyeva - *Журнал дошкольного образования*, 2021
7. Gulnora Kushakova, xalq og'zaki ijodi namunalari oila masalalarining talqin etilishi